


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MAXSUS SON

G.Xamidov	
O'simliklar dunyosi biosferaning muhim va faol komponenti.....	218
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni dunyo pedagogikasida rivojlanishi	221
V.Abdurakhmanov	
New directions in language learning: combination of online resources and blended learning	223
S.Uraimov	
O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini to'rt darajali jismoniy mashg'ulotlar zinasi orqali oshirish usullari	226
Z.Gapparov	
Yosh futbolchilarning o'yin amplulariga individual psixologik holatini ta'siri.....	230
J.M.Ishabayev	
O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi futbolchilarning mashg'ulot jarayonidagi psixologik holatini taxlil qilish.....	235
M.Azizov	
"Bioimpedansometriya" yordamida 30-39 yoshli skandinavcha yurish bilan shug'ullanuvchilarning tana tarkibi tuzulishini o'rganish metodikasi.....	239
D.Mavlanov, R.Nazarov	
Shaxs ichki nizolari va ularning fanda o'rganilganlik holati	245
M.Mirjamolov	
Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilar tayyorlash uchun kinematik va psiko-fiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish.....	248
Ш.Турсунов	
Методика совершенствования физических показателей борцов.....	252
X.Matnazarov	
Ko'krakda krol usulida suzuvchi 11-13 yoshli sportchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirish	257
G.Xo'jamkeldiyev	
Qisqa, o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni mashg'ulotlar davomida va so'ngida mushaklarni tiklashda maxsus aplikatorni qo'llash samaradorligi	261
O.Xasanov	
Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ippoterapiya mashg'ulotlari asosida aqli va jismoniy funksional holatini rivojlantirish.....	265
B.Nabiev	
Расчет пространственной зависимости температуры и температурной неустойчивости термоэлементов	270
R.Pirnazarov	
To'g'onli ko'llarda ro'y berishi mumkin bo'lgan toshqin xavfini baholashning genetik asoslari	277
М.Ж.Есиркепов, А.К.Анарбаев, И.Б. Курманбаев, А.Р.Мусаева	
Патриотическое воспитание молодежи через достижения в тренерской деятельности а.нурмаханова	281
V.Abdurakhmanov	
Alternativ so'roq gaplarning poetik jihatdan o'rganilishi	286
A.Sultonov	
Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi.....	288

SHAXS ICHKI NIZOLARI VA ULARNING FANDA O'RGANILGANLIK HOLATI**ВНУТРЕННИЕ КОНФЛИКТЫ ЛИЧНОСТИ И СОСТОЯНИЕ ИХ ИЗУЧЕННОСТИ В НАУКЕ****INTERNAL CONFLICTS OF PERSONALITY AND THE STATE OF THEIR STUDY IN SCIENCE****Mavlanov Donyor Ergash o'g'li¹**¹O'zDJTSU tayanch doktaranti**Nazarov Rustam Nurali o'g'li²**²O'zDJTSU o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada shaxs shakllanishida o'smirlik yoshi, o'zining ijtimoiy va biologik rivojlanishi, shaxsda yuz beradigan ichki nizolar va ichki nizoning sodir bo'lishiga, kechishiga, zo'rayishida o'smirning xarakter xususiyatlarida bo'ladigan o'zgarishlarning xorij, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hamda yurtimiz olimlari tomonidan o'rganilganlik holati yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье освещается состояние подросткового возраста в формировании личности, его социальное и биологическое развитие, внутренние конфликты, происходящие в личности, и изменения, происходящие в особенностях характера подростка при возникновении, протекании, обострении внутренних конфликтов, изучаемые зарубежными, Содружеством Независимых Государств и отечественными учеными.

Abstract

In this article, the adolescent age in the formation of the personality, its social and biological development, internal conflicts that occur in the person and the changes in the character traits of the teenager during the occurrence, transition, and intensification of the internal conflict are discussed abroad, Commonwealth of Independent States and the state of being studied by the scientists of our country.

Kalit so'zlar: shaxs, o'smirlik, nizo, ichki nizo, qarama-qarshiliklar, psixologik nizo, xarakter, qo'rquv, inqiroz.

Ключевые слова: личность, подростковый возраст, конфликт, внутренний конфликт, противоречия, психологический конфликт, характер, страх, кризис.

Key words: personality, adolescence, conflict, internal conflict, contradictions, healing conflict, character, fear, crisis.

KIRISH

Shaxs shakllanishida o'smirlik yoshi muhim ijtimoiylashuv jarayoni sifatida, shaxs shakllanishi va rivojlanishi, ijtimoiy yetuklikning notekisliklari bilan ajralib turadi. Bu davrda o'smirlarda ko'pincha tashqi va ichki nizolar yuzaga kelib, bular deviant xulqning sababi bo'lishi mumkin, ba'zi tadqiqotchilar esa o'smirlik yoshini "normal patologiya" sifatida qabul qiladilar.

Hozirgi vaqtida ichki nizolar muammosi yosh va ijtimoiy psixologiyaning dolzarb ilmiy-amaliy muammosi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti shakllanishi va jamiyatning ijtimoiy institutlarining yangilanishi sharoitida o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiysi sifatini ta'minlash muhim sanalib, zero ulardan jamiyatning kelajagi uning ma'nnaviy va ahloqiy ta'minlanganligi, madaniy va iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, ichki nizo muammosining o'rganilishi va uning ilmiy-amaliy yechimi mazkur savolning yosh va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan yechimini topishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shaxslararo nizolarning birinchi nazariy va eksperimental tadqiqotlari **K. Levin** tomonidan o'tkazilgan va u bu muammoni shaxs ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi nuqtai nazaridan o'rgangan. **K. Levin** tomonidan, nizo bu – individga bir xil o'lchamdag'i qarama-qarshi yo'naltirilgan kuchlar ta'sir etadi, deb ta'rif beriladi.

Xorij va yurtimiz adabiyotlarining o'rganilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, hozircha ichki nizoning **umumiyyat** mavjud emas. Psixanalitik nazariyada ichki nizo ostida shaxs ichidagi o'zaro bir-biriga mos bo'limgan kuchlar yoki tuzilmalar kurashi tushuniladi: "U" va "Yuqori Men" o'rtasida (**Z.Freyd**); o'zidan ko'ngli to'lmasligi va uni yengib o'tish o'rtasida (**A.Adler**); shaxsiy

“Men” va arxetip o’rtasida (**K.Yung**); bir-biriga qarama-qarshi «nevrotik ehtiyojlar o’rtasida» (**K.Xorn**). Bixevoiristlar uchun ichki nizo – bu noto’g’ri tarbiyaning natijasidagi reaksiyalarning yig’indisidir (**B.Skinner**). Geshtalt psixologiyada (**K. Levin**) ichki nizo – bu shaxsga ta’sir qiladigan bir xil o’lchamdagagi kuchlarning zarurligi o’rtasidagi holatdir.

Kognitiv psixologiya ichki nizoni negativ holat sifatida o’rganib, shaxsning individual xususiyatlarining o’zaro mos kelmasligi yoki uning xulqi va bilimlarining mos kelmasligi holatida sodir bo’lishini ta’kidlaydi. (**Dj. Kelli, L. Festinger**). Gumanistik psixologiyada shaxsiy tajriba va Men konsepsiysi o’rtasidagi (**K. Rodjers**), real natija va muhimlikka intilish o’rtasidagi qarama-qarshiliklar (**A. Maslou**) o’rganilgan. Ekzistensial psixologiya nuqtai nazaridan ichki nizo shaxs uchun hayot mazmuning yo’qolishi holati sifatida tushuniladi (**V.Frankl**).

Sovet davri psixologiyasida ichki nizo bir necha yo’nalishlar doirasida ko’riladi. Faoliyat nazariyasida nizo faoliyatning tuzilma komponentlari (motiv, munosabat, maqsad) yordamida talqin qilinadi, bular nizo yuzaga kelishining asosi va sharti sifatida ko’riladi. (**A.N. Leontyev, V.N.Myasishev, V.S.Merlin**). Shaxs rivojlanishida ichki nizo psixologik hodisa sifatida ta’riflanadi, inson yosh krizisini boshdan kechirayotgan vaziyatlarda namoyon bo’ladi va shaxs rivojlanish jarayonini kuzatib boradi. (**L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich**). Shuningdek, ichki nizoni inson hayotining hayotiy vaziyatlarda har tomonlama (**F.Y. Vasilyuk, A.Y. Ansupov va A.I.Shipilov**), yoki nizoni o’zini anglashning omili sifatida o’rgangan (**V.V.Stolin**) qator ishlar mavjud.

Ko’pgina mualliflar ishlarida ichki nizo “ichki shaxsiy nizo” deb ta’riflanadi va buning asosida turli tomonlar (motivlar, qadriyatlar, ehtiyojlarning qondirilmayligi), munosabatlar va individning harakatlari yotadi. Agar shaxs tuzilmasida qarama-qarshiliklar muhim o’rinni egallasa va inson hayotining mazmuni qadriyatlarga asoslansa ichki nizo shaxsiy rivojlanishning sharti bo’lib xizmat qiladi.

Umuman olganda ichki shaxsiy nizoni shaxsning ichki tendensiyalari va ularni qondirish imkoniyatlari o’rtasidagi qarama-qarshiliklar nuqtai nazaridan talqin etish mumkin. Shaxsning qanday tendensiyalari kurashga kirishsa ichki nizolarning quyidagi turlari mayjudligi to’g’risida so’z yuritish mumkin: motivatsion nizo; ahloqiy yoki ma’naviy; erishilmagan hohish nizosi; rolli adaptasion; o’z-o’ziga noadekvat baho berishi.

O’smirlardagi ichki nizo **V.I.Garbuzov, D.V.Greshnev, A.I.Zaxarov, A.S.Spivakovskaya, Y.B.Fantalovalarning ba’zi ishlarida maxsus o’rganilgan**. Bu ishlarning tahlili va umumlashtirilishi asosida “ichki nizo” tushunchasiga bir-biriga mos bo’laman yoki qarama-qarshi bo’lgan fikrlar, qiziqishlar, o’z-o’ziga baho, ichki motivlar va o’smirning ahloqi, muloqoti, faoliyatiga ta’sir ko’rsatuvchi, undagi o’zgargan “Men” konsepsiysi shakllanishining to’qnashuvi deb ta’rif berish mumkin.

Psixologlarning ba’zi bir tadqiqotlarda o’smir yoshidan shakllanib boradigan “nizoli shaxs” mayjudligi aniqlangan.

Bu davrdagi nizoning faolligi o’smirni o’rab turgan ijtimoiy muhit bilan muloqot jarayonida qadriyatlarning muntazam yuqori baholash bilan bog’liq. Psixik jihatdan bunday shaxs o’ziga noadekvat baho berishi va talab qilish darajasi bilan xarakterlanib, va muntazam ravishda tashqi shaxslararo nizolarga olib keladigan aksentual xarakter xususiyatlari, agressiya, yuqori xavotirlikdir (**A.I.Zaxarov, V.V.Korolev**).

O’smirlik psixiatriyasi ma’lumotlariga ko’ra, deviant xulq va o’smirlardagi nevrozning rivojlanishida ichki faktor –“psixologik nizo” belgilovchi rolni bajarib, shaxsning qarama-qarshi munosabatlarining nomutanosibligini, o’z-o’ziga baho va imkoniyatlar, shaxsiy qiziqishlari va ijtimoiy talablarni namoyon etadi. Psixologik nizo uchun xarakterli bo’lgan hissiy kechinmalar shaxsning nevrotizatsiyasi manbasiga aylanadi. Lekin bu faqat shunday vaziyatda yuz beradiki, qachon ular shaxs munosabatlari tizimida muhim ahamiyatga ega bo’lsa, shuningdek ichki nizoning rasional yechimi topilmasa (**V.N. Myasishev, A.S.Spivakovskaya**).

O’smirlik davridagi ichki nizolarning sabablari sifatida qator mualliflar patoxarakterologik reaksiyalarni qat’iy norozilik, immitatsiyalar, kompensatsiyalar va giperkompensatsiyalar, emansipatiya, guruylashtirish, ishtiyoqlar, shuningdek seksual qiziqish bilan bog’liq bo’lgan omillarni ta’kidlaydilar (**V.V. Kovalev, A.Y.Lichko, V.V.Korolev**).

A.Y.Lichko fikricha o’smirlik davrida xarakter shakllanishi va katta bo’lgan sari bartaraf etiladigan o’smirlardagi xarakter aksentuatsiyasi ichki nizoning asosiy sabablaridir. Biroq bular patologik xodisalarga kirmaydi. Yaqqol ifodalangan aksentuatsiya – bu me’yorning oxirgi

MAXSUS SON

variantidir. O'smir o'zining aksentual xarakterini anglashni baholasa, shuningdek, ularni boshqa o'smirlarning xarakter xususiyatlari bilan taqqoslay boshlasa ichki nizo yuzaga keladi.

O'smirlik davri xususiyatlari va emotsiyal o'zgarishlarni tadqiq etish **B.M.Umarov** ishlarida ham ko'rindi. U bolalar hamda o'smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritib bergan bolib, olimning fikricha, o'qituvchi, o'quvchi hamda oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo nizolar, "sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar", "qo'rquv", "his-hayajon", "g'am-g'ussa" va yosh davri "inqirozlar" bolalar, o'smirlar suitsidining asosiy sabablari bo'lib hisoblanadi. Muallif qo'rquv holatiga suitsidni yuzaga keltiruvchi omil sifatida qaraydi.

Shunday qilib, o'smirlik davridagi ichki nizo muammosi dolzarb va ko'p tomonlidir va u psixologik yondashuv asosida tadqiqot o'tkazishni, o'smirlardagi ichki nizoni yosh davrlar va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan o'rganishni talab etadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, psixologik holatlar shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida xarakter xususiyatlarining ijtimoiy muhim shaxsiy sifatlarining shakllanishi, muloqot va xulqning barqaror shakllari, insonlarga, voqealarga va vaziyatlarga hissiy munosabat usullarini tarkib topishi va shu bilan birga bu davr o'z-o'zini anglashi kabi jarayonlar yuz beradi.

Shuningdek, bolalarcha dunyoqarashning o'zgarishi, "Men"ning namoyon bo'lishi, o'zining imkoniyat va qobiliyatları, o'z-o'ziga noadekvat baho berishi bilan xarakterlanishi ham kuzatiladi. O'z navbatida o'smir shaxsnинг qarama-qarshi munosabatlarining nomutanosibligi o'z-o'zini baholash va imkoniyatlar, shaxsiy manfaat va ijtimoiy talablarni ifodalaydigan ulardagи deviant xulq va nevrozlarni rivojlanishida ma'lum bir vazifani bajarishi o'z o'rnda psixologik ichki nizoni keltirib chiqarishi bilan bog'liq bir qator ob'yektiv va subektiv omillar bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bir qator **tavsiyalar** berishimiz mumkin:

- har bir yosh davrida bolalarning ruhiy va shaxs rivojlanishidagi sifat o'zgarishlarini o'rganib borish, yosh davridagi "Inqiroz"larni "nazorat" ostiga olish;
- bolalarning psixik taraqqiyoti, rivojlanishini muntazam kuzatib borish, salbiy burilishlarning oldini olish, nuqsonlarni tuzatish va bartaraf etish choralarini ko'rish;
- ta'lim-tarbiyaga oid psixologik muammolar bo'yicha maktab ma'muriyati, pedagoglar va ota-onalarga maslahatlar berib borish, bola tarbiyasiga daxldor shaxslarning psixologik madaniyatini o'stirish ishlarini yo'lga qo'yish;
- o'smirlar uchun o'qish, o'z-o'zini tarbiyalash, hayot yo'lini tanlash va boshqa muammolari bo'yicha individual, guruhiy maslahatlar o'tkazish;
- o'smir-yoshlarning ta'lim bilan doimiy band bo'lishlarini, shuningdek ularning professional-kasbiy ta'limga hamda sportga ko'proq jalb qilinishini ta'minlashning amaliy chora - tadbirlarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рояк А.А. психологический конфликт и особенности индивидуального развития ребенка.- М.Педагогика. 1988 г.-118 с.
2. Umarov B.M. Bolalar va o'smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psicol. fan. nomz. ... dis. — T.: TDPU, 1993. — 154 b.
3. Абрамова Г.С. Возрастная психология: учебник для студентов ВУЗов. –М. 2001 г.
4. М. Махсудова. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — Т.: «Turon-lqbol» nashriyoti, 2006. — 119 b.
5. Гозиев Э.Г. Рухиева Х.О. «Методические рекомендации по психологии высшей школы для слушателей Ф.Н.К.» Тошкент Тош.Д.У. 1990 г.
6. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O'quv metodik qo'llanma TDPU. 2004y. 129 bet